



THE EFFECT OF "NEW ECONOMIC POLICY" ON THE HEALTH CARE SYSTEM OF TURKESTAN ASSR (EXAMPLE OF FERGANA REGION)

Rukhiddin Pathiddinov

PhD, associate professor.

Namangan Institute of Engineering Technology

Namangan, Uzbekistan

E-mail: ruxiddinpatxiddinov@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Health care, hospital, epidemic, New economic policy, Fergana region

Received: 15.12.24

Accepted: 17.12.24

Published: 19.12.24

Abstract: This article highlights the impact of the "new economic policy" on the healthcare system of Turkestan during the years of Soviet power. It is based on the fact that in 1921-1923, the healthcare system of Turkestan fell into a difficult situation due to financial difficulties.

“YANGI IQTISODIY SIYOSAT”NING TURKISTON ASSR SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIGA TA’SIRI (FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)

Ruxiddin Patxiddinov

PhD, dotsent v.b.

Namangan muhandislik texnologiya instituti

Namangan, O‘zbekiston

E-mail: ruxiddinpatxiddinov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Sog‘liqni saqlash, kasalxona, epidemiya, Yangi iqtisodiy siyosat, Farg‘ona viloyati

Annotatsiya: Ushbu maqolada sovet hokimiyati yillarida “yangi iqtisodiy siyosat”ning Turkiston o‘lkasi sog‘liqni saqlash tizimiga ta’siri yoritib berilgan. 1921-1923 yillarda Turkiston sog‘liqni saqlash tizimi moddiy qiyinchiliklar tufayli og‘ir holatga tushib qolganligi asoslangan.

ВЛИЯНИЕ «НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ» НА СИСТЕМУ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ТУРЕЦКОЙ АССР (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Рухиддин Патхиддинов

Кандидат исторических наук, доцент и т.д.

Наманганский инженерно-технологический институт

Наманган, Узбекистан

E-mail: ruxiddinpatxiddinov@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Здравоохранение, больница, эпидемия, Новая экономическая политика, Ферганская область.

Аннотация: В данной статье освещается влияние «новой экономической политики» на систему здравоохранения Туркестана в годы советской власти. Он основан на том, что 1921-1923 годах система здравоохранения Туркестана попала в тяжелое положение из-за финансовых затруднений.

KIRISH

Rossiya imperiyasida yuz bergan 1917-yil Fevral inqilobi va Oktyabr davlat to'ntarishi voqealari Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Turkiston o'lkasida ham hokimiyat sovetlar qo'liga o'tdi. Sovet hukumati sog'liqni saqlash xalq komissarligini tuzub, tibbiyot tizimini ham to'la nazoratga oldi. 1921-yilda yangi iqtisodiy siyosatning e'lon qilinishi ortidan, 1922-yildan tibbiyot muassasalari mahalliy byudjetlar hisobiga o'tkazildi. Barcha viloyatlarda tibbiyot muassasalari mahalliy byudjet hisobiga o'tkazilishida imkoniyatlar hisobga olinmagani oqibatida jiddiy qisqarishga uchradi.

ASOSIY QISM

1921-yilda Farg'ona viloyatida 55 ta tibbiyot muassasasi, shundan 3 ta kasalxonadan tashqari dorixona va 3 ta aralash dorixona, 27 ta ambulatoriya, 10 ta stomatologiya ambulatoriyasi, 1 ta stomatologiya texnik laboratoriyasi faoliyat ko'rsatdi. Mazkur tibbiyot muassasalarida 35 nafar shifokor, 29 nafar akusher, 98 nafar tibbiy yordamchi, 10 nafar tish shifokorlari, 26 nafar farmatsevtlar, jami 234 nafar tibbiyot xodimlari va 766 nafar texnik xo'jalik xizmatchilari faoliyat ko'rsatgan. Kasalxonalaridagi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli, tibbiy xodimlarning faoliyat ko'rsatishi yanada qiyinlashdi. 1921-yil oxiridan sog'liqni saqlash xarajatlarning mahalliy byudjetlar hisobiga o'tkazilishi ahvolni yanada og'irlashtirgan. 1922-yilning dastlabki ikki yarim oyi davomida Farg'ona sog'liqni saqlash boshqarmasiga yuqori organlardan hech qanday yordam berilmadi. Natijada tibbiyot xodimlari ishdan keta boshladi. Aprel oyida ozroq pul bilan ta'minlangan bo'lsa-da, bu ko'p vaqtga yetmadi. Tibbiyot xodimlarini oziq-ovqat bilan yetarli ta'minlamagan: belgilangan unning 50 foizi va guruchning 30 foizi berilgan, boshqa hech narsa berilmagan[1].

Sog'liqni saqlash ishini tashkil etishda asosiy qiyinchiliklar sohaga yetarli mablag'lar ajratilmagani, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi sababli yuzaga keldi. 1921-yil 6-9-iyundagi Turkiston o'lkasi sog'liqni saqlash bo'limlari syezdida qayd etilishicha, o'lkada sog'liqni saqlash tizimi qiyin ahvolda qolgan. Kasalxonalar ta'mirtalab holatga kelib qolgan,

xo'jalik inventarlarida jiddiy tanqislik mavjud edi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi ahvol nihoyatda og'ir edi. Hammolarning yoqilg'i bilan ta'minlanmasligi natijasida, qichima kasalligi ko'payib ketgan. Sanitarlar soni juda kam, borlari ham ish og'irligidan ketib qolgan. Kasalxonalar ham yoqilg'i bilan ta'minlanmasligi tufayli kuz-qish mavsumida o'rinlar ikki marta kamayishi mumkin edi[2].

Turkiston o'lkasi tibbiyot muassasalarini mahalliy byudjet hisobiga o'tkazilishi arafasidagi holati [3]

№	viloyatlar	shahar kasalxonalari	shahar ambulatoriyalari	uchastka kasalxonalari	feldsherlik ambulatoriyalari	stomatologiya kabinetlari	tez yordam	kasalxona o'rinlari
1	Farg'ona	16	8	8	21	4	-	765
2	Sirdaryo	23	12	29	51	16	2	3869
3	Samarqand	12	8	8	7	9	1	731
4	Yettisuv	10	3	23	25	3	1	1029
5	Turkman	9	7	3	36	3	1	460
6	Amudaryo	1		2				170
7	Jami	73	38	73	137	37	5	7024

Turkiston o'lkasi tibbiyot muassasalarining soni (1922-yil 1-noyabr holatiga)[4]

№	viloyatlar	shahar kasalxonalari	shahar ambulatoriyalari	uchastka kasalxonalari	feldsherlik ambulatoriyalari	stomatologiya kabinetlari	tez yordam	kasalxona o'rinlari
1	Farg'ona	12	8	8	6	4	-	695
2	Sirdaryo	18	16	17	53	12	2	2126
3	Samarqand	11	11	10	12	6	1	418
4	Yettisuv	10	3	23	25	3	1	660
5	Turkman	7	7	3	29	4	-	250
6	Amudaryo	1	2	2	-	-	-	70
7	Jami	59	46	63	138	29	4	4219

1922-yilning 1-may holatiga Namangan uyezdi sog'liqni saqlash bo'limining xizmatchilardan 1 280 000 000 rubl qarzdorligi mavjud edi. Natijada tibbiyot xodimlarining bir qismi ishga chiqmay qo'ygan, bir qismi bo'limga berilgan 100 million rubl hisobiga ushlab turilgan. Marg'ilon uyezdida ham maoshlar 1922-yilning dastlabki uch oyi davomida berilmagani tufayli tibbiyot xodimlari och qolgan va bemorlarning narsalarini o'g'irlash holatlari kuzatilgan. Kasalxonalarda inventarlarning jiddiy yetishmovchiligi mavjud edi. Choyshablarning 75 foizi ishlatib bo'lmas holatga kelib qolgan, zaxira esa yo'q edi. O'sh uyezdida maoshlar 3 oy

davomida berilmagani tufayli, tibbiyot xodimlari qiyin ahvolga tushib qolgan. Gulchindagi kasalxona yopilish holatiga kelib qolgan, ammo aholining tashabbusi bilan moliyaviy ta'minlab turilgan[5].

1922-yil 21-25-noyabrda Turkiston o'lkasi viloyat sog'liqni saqlash bo'lim boshliqlarining yig'ilishida qayd etilishicha, Farg'ona viloyatida davolanish o'rinlari 650 tani tashkil etgan. Davolanish o'rinlari xarajatlarning mahalliy byudjet hisobiga o'tkazilishi ortidan 22 foizga, ya'ni 250 taga qisqargan. Ushbu qisqarish asosan yuqumli kasalliklar shifoxonalari va "Bolalar uylari" hisobiga bo'lgan. Xususan, mablag' tanqisligi ortidan 120 ta yuqumli kasalliklar o'rinlari, 2 ta ambulatoriya, 1 ta "Bolalar uyi" berkilgan. 8 ta kasalxona va 6 ta ambulatoriya urush natijasida vayron qilingan. Farg'ona viloyati ambulatoriyalarida 8 oy davomida 148500 nafar bemor davolangan[6].

Kasalxonalar va mavjud davolanish o'rinlarining kamligi natijasida, mahalliy aholining aksariyat qismida tibbiy yordamga murojaat qilish imkoniyati bo'lmagan. Bu holatni Turkiston o'lkasidagi 1922-yilda kasalxonalarga murojaat darajasi pastligidan ham ko'rish mumkin. Davlat tibbiy muassasalariga aholining murojaat darajasi eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida (68,1 foiz), eng kam ko'rsatkichi Farg'ona (11,4 foiz) va Amudaryo (8,8 foiz) viloyatlarida kuzatilgan.[7]

Turkiston o'lkasida tibbiyot muassasalariga aholining murojaat darajasi

№	viloyatlar	aholi soni	ambulator			statsionar	
			birinchi marta murojaat	jami murojaat	aholining murojaat foizi	bemorlar soni	foizi
1	Toshkent sh	232069	157043	538755	68,1	21971	9,5
2	Sirdaryo	1073762	251590	762180	27,1	13412	1,2
3	Samarqand	792649	107266	310700	13,3	16236	2
4	Farg'ona	1669475	190907	542183	11,4	13353	0,8
5	Yettisuv	959620	304258	797693	31,7	13878	1,4
6	Turkman	33793	78317	227900	23,6	7564	2,3
7	Amudaryo	160595	14169	40479	8,8	821	0,8
8	Jami	5221963	1143750	3239890	26,8	87219	2,5

Farg'ona viloyatida 1922-yilning iyun-iyul oylarida faqatgina bir necha uyezdlar shifoxonalarni mablag' bilan ta'minlay oldi. O'sh, Namangan, Marg'ilon uyezdlarining ijroiya qo'mitalari mablag' bilan ta'minlashni rad etmasalarda, amalda kasalxonalarga umuman mablag' berilmagan. 1922-yil 1-oktyabrdan shifoxonalarning davlat oziq-ovqat ta'minotidan uzilishi vaziyatni yanada og'irlashtirgan. Tibbiyot xodimlarining ish tashlash holatlari ko'payib ketgan[8]. Tibbiyot muassasalarining eng katta qisqarishi 1922-yil 1-iyundan 1923-yil 1-

yanvargacha sodir bo'ldi. Bu davrda qishloq uchastka tibbiyot muassasalari 51,6 foizga, shahar tibbiyot muassasalari 44,6 foizga qisqardi. Bir o'ringa to'g'ri keladigan aholi soni 1922-yilda 379 kishini, 1923-yil 1-yanvarda 1270 kishini tashkil etdi[9].

1922-yil 1-noyabrda Turkiston SSXK Gelfgot sog'liqni saqlash sohasidagi ishlar bilan tanishish uchun Farg'ona viloyatiga boradi. Uning yozishicha, Andijon va Marg'ilon uyezdlari revkomlarining sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan munosabatlarining tartibsizligi natijasida, shifoxonalar qiyin ahvolga tushib qolgan. Marg'ilon uyezdida kasalxonalarda bemorlar uchun oziq-ovqat va yoqilg'i umuman ajratilmagan. Marg'ilon uyezdida revkomi va Farg'ona shahar revkomi shifoxonalarga umuman mablag' ajratishmagan. Andijon uyezdida esa shifoxonalar uchun oziq-ovqat faqat joriy ehtiyoj uchun ajratilgan[10].

Turkiston o'lkasida sovet davrining dastlabki yillarida sog'liqni saqlash ishiga ikkinchi darajali masala sifatida qaraldi. Sog'liqni saqlashga cheklangan mablag'lar ajratildi. Xususan, Turkiston ASSRning 1923-1924 xo'jalik yilidagi davlat byudjetidan Turkiston SSXKga 327701 rubl, ya'ni umumiy byudjetning 5 foizi ajratildi. Xuddi shu davrda Turkiston o'lkasidagi 5 ta viloyat mahalliy byudjetlaridan sog'liqni saqlash sohasiga 1572034 rubl, umumiy byudjetning 10,5 foizi ajratildi. Yetarli e'tibor qaratilmagani tufayli o'lkada sog'liqni saqlash ishi rivojlanish o'rniga orqaga qarab ketdi. Birgina 1923-1924-yilda o'lkadagi kasalxona o'rinlari 3492 tadan 2359 taga, ya'ni 32,5 foizga qisqardi. Qishloq hududlarida kasalxonalar 40 foizga qisqarib ketdi. 1923-1924-yillarda Turkiston o'lkasi qishloqlardagi uchastka kasalxonalari soni 64 tadan 36 taga, ulardagi o'rinlar soni 648 tadan 380 taga kamaydi. Farg'ona viloyatida bir davolanish o'rniga 18000 aholi to'g'ri kelgan. Butun Turkiston ASSR hududida profilaktika maqsadidagi sanitar tashkilotlar umuman yo'q edi. Zaxm, ko'z kasalliklariga chalingan bemorlar va tug'ruqdagi ayollar o'z holiga tashlab qo'yilgan edi. Qishloqlardagi uchastka kasalxonalari kam sonli bo'lsa-da, ularni shifokorlar bilan ta'minlash yetarli bo'lmagan. Ko'pgina kasalxonalarni maoshning kamligi tufayli, tibbiy yordamchilar tomonidan boshqarilgan[11].

1923-yilga kelib tibbiyot muassasalarida bir qancha muammolar yig'ilib qolgan edi. Barcha kasalxonalarda bemorlar noto'g'ri ovqatlantirilgan, bemorlarni to'g'ri saralanmagan, kasallik tarixlari yuzaki to'ldirilgan. Tibbiy muassasalarda xo'jalik-boshqaruv va davolash-sanitar tizimidagi tartibsizliklarning asosiy sabablaridan biri uyezd sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlarining yetarli boshqaruv salohiyatiga ega emasligi, uchastka kasalxonalari va O'sh uyezd-shahar kasalxonasining tibbiy yordamchilar tomonidan boshqarilishi, uyezd kasalxonalari esa yosh, tajribasiz shifokorlar tomonidan boshqarilishida edi. Faqatgina 1923-yil aprel oyida Qo'qon uyezdining Beshariq va Konibodom uchastka kasalxonalari shifokorlar tayinlandi. Maxsus tibbiy yordam qisman Qo'qon, Namangan,

Andijondagina mavjud edi. Viloyatda sil kasalxonalari, tomoq, burun, quloq shifokorlari yo‘q edi. Tug‘ruqxona, ko‘z kasalliklari shifoxonasi faqatgina Qo‘qon shahrida mavjud bo‘lgan. Qo‘qon shahar kasalxonasining tanosil kasalliklari bo‘limi mavjud bo‘lsa-da, mutaxassis shifokor tomonidan boshqarilmagan[12].

XULOSA

Sovet hukumati sog‘liqni saqlash sohasida kadrlar, dori-darmon, tibbiy inventarlar yetishmasligi, shifokor va kasalxonalarga moddiy ta‘minotning yetarli emasligi kabi muammolarga duch keldi. Sovet hukumati mazkur muammolarni hal etishga harakat qilib, bir qator ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirgan bo‘lsa-da, qiyin iqtisodiy-ijtimoiy inqiroz sharoitida ko‘rilgan choralar yetarli bo‘lmadi. Bu esa, aholi sonining keskin qisqarishiga sabab bo‘ldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 92- yig‘ma jild, 277-varaq va orqasi.
2. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 41- yig‘ma jild, 15-varaq.
3. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 260- yig‘ma jild, 53-varaq va orqasi.
4. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 260- yig‘ma jild, 53-varaq va orqasi.
5. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 138- yig‘ma jild, 131- varaq va orqasi.
6. O‘z MA, R.25-fond, 1-ro‘yxat, 986-yig‘ma jild, 17-varaq.
7. O‘z MA, R.25-fond, 1-ro‘yxat, 1821-yig‘ma jild, 125-varaq.
8. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 138- yig‘ma jild, varaq.
9. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 416- yig‘ma jild, 149-varaq.
10. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 260- yig‘ma jild, 65-varaq va orqasi.
11. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 443- yig‘ma jild, 229-varaq va orqasi.
12. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 402- yig‘ma jild, 145-152-varaqlar.